

TTMM – Global Export

Loyiha raqami:	55692
Holati:	Kredit mablag'larini ajratish bosqichida
Joylashuvi:	O'zbekiston
Biznes sektori:	Oziq-ovqat sanoati va agrobiznes
Bildirishnoma turi:	Xususiy
Ekologik toifasi:	B
Tasdiqlanish sanasi:	2025-yil 7-oktabr
Ingliz tilida e'lon qilingan sana:	2025-yil 7-oktabr

YTTBning Axborotdan foydalanish to'g'risidagi yo'riqnomasining 1.4.2 (iii) bo'limiga muvofiq: "Bank rahbariyati tomonidan tasdiqlangan loyihalar uchun, Direktorlar kengashi tasdiqlash vakolatini ularga topshirgan taqdirda, YTTBni ta'sis etish to'g'risidagi Bitimning 13 (iii) moddasiga muvofiq, loyiha rezyumesi Bankning a'zo mamlakatiga e'tirozlar yo'qligi haqidagi tegishli bildirishnoma berilgan davr boshida oshkor qilinishi kerak."

Loyiha tavsifi

Loyiha "Global Export Company" MChJga 10 million yevrogacha miqdorda navbatdagi ta'minlangan ustuvor kredit ajratishni nazarda tutadi. Natijada YTTB investitsiyalarining umumiy hajmi 15 million yevrogacha yetadi.

Loyiha maqsadlari

Loyiha Qarz oluvchining qayta ishlash quvvatlari va uskunalariga keyingi kapital qo'yilmalarini, jumladan mosh, quritilgan o'rik va mayiz ishlab chiqarishni kengaytirishni, shuningdek eksport faoliyatini yanada rivojlantirish uchun doimiy aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarni qo'llab-quvvatlaydi. Loyiha energiya tejamkor uskunalariga investitsiyalar va issiqxona gazlari emissiyasi past bo'lgan qishloq xo'jaligi qiymat zanjirlarini rivojlantirish orqali Yashil iqtisodiyotga o'tish (GET) talablariga to'liq mos keladi.

O'tish davri ta'siri

ETI (Kutilayotgan o'tish ta'siri): 80

- **Raqobatbardoshlik:** Loyiha Qarz oluvchining xomashyo savdosidan yuqori qo'shilgan qiymatga ega qayta ishlash faoliyatiga o'tishini qo'llab-quvvatlaydi. Bu mahsulotlar turini kengaytirish va yangi eksport bozorlariga chiqishni ham o'z ichiga oladi.
- **Yashil iqtisodiyot:** Loyiha energiya tejamkor texnologik uskunalariga qo'shimcha investitsiyalar kiritish hamda organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa issiqxona gazlari emissiyasi past bo'lgan ishlab chiqarish va qiymat zanjirlarini yanada mustahkamlaydi.

Mijoz haqida ma'lumot

"GLOBAL EXPORT COMPANY" MChJ

"Global Export Company" MChJ O'zbekistonda dukkakli ekinlar va quritilgan mevalarni eksport qilish hamda qayta ishlash bo'yicha yetakchi kompaniyalardan biridir.

YTTB moliyaviy ko‘magi

15 million yevro

Loyihaning umumiy qiymati

15 million yevro

Qo‘shimchalik

YTTB mahalliy banklarda mavjud bo‘lmagan tijorat shartlarida moliyalashtirish taqdim etadi hamda uzoq muddatli hamkorlik doirasida moliyaviy boshqaruv, moliyaviy shaffoflik va korporativ boshqaruv bo‘yicha yuqori standartlarni joriy etishga ko‘maklashadi.

Ekologik va ijtimoiy xulosa

Loyiha 2024-yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosatga (ESP) muvofiq “B” toifasiga kiritilgan. Ekologik va ijtimoiy kompleks tekshiruv (ESDD) Bank ichida amalga oshirilgan bo‘lib, u ESDD so‘rovnomasi, Kompaniya hujjatlari tahlili va Kompaniya bilan keyingi muloqotni o‘z ichiga olgan. Texnologik liniyalarni kichik ko‘lamda kengaytirish bo‘yicha kapital qo‘yilmalar, shuningdek mosh, quritilgan o‘rik, mayiz va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish, qayta ishlash va eksport qilish uchun dukkakli mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq aylanma mablag‘lar doirasidagi ekologik va ijtimoiy risklar obyektga xos bo‘lib, ularni oson bartaraf etish mumkin. ESDD Kompaniya akkreditatsiyadan o‘tgan organlar tomonidan mustaqil sertifikatlangan, rasmiylashtirilgan va xalqaro miqyosda tan olingan boshqaruv tizimlari asosida faoliyat yuritishini tasdiqladi, jumladan: ISO 9001 (sifat menejmenti tizimi), ISO 14001 (ekologik menejment) va ISO 45001 (mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi).

Korxonada faoliyati xususiyati, sektori va geografik joylashuvini hisobga olgan holda, xodimlarning mehnat sharoitlari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi, gender asosidagi zo‘ravonlik va tazyiqlar (GBVH), shuningdek ta‘minot zanjirida mehnat resurslarini boshqarish bilan bog‘liq masalalar potensial risklar sifatida belgilangan. Ushbu risklarni boshqarish maqsadida Kompaniya tan olingan organ – SEDEX platformasida akkreditatsiya bilan tasdiqlangan mustahkam boshqaruv tizimini joriy etmoqda, jumladan SMETA 4 komponentli auditini o‘tkazish orqali (ijtimoiy masalalar, mehnat munosabatlari, sog‘liqni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi, ekologik menejment hamda biznes etikasi; so‘nggi audit 2025-yil may oyida o‘tkazilgan). Kompaniya tuzatish choralarining bajarilgani va uning faoliyati xalqaro standartlarga muvofiqligini tasdiqlovchi yetarli dalillarga ega.

Tuzatish choralari xodimlar so‘rovlari yoki fikr-mulohazalari, yozma tavsiyalar hamda ish vaqti masalalari bo‘yicha treninglar kabi choralar orqali monitoringni kuchaytirish va ish vaqtini kompaniyaning ish vaqti siyosatiga muvofiq qayta ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, tirikchilik minimumi bilan ish haqi o‘rtasidagi tafovutlarni hisoblash tartibi va zaruratga qarab ushbu tafovutlarni bartaraf etish uchun kiritiladigan tuzatishlar ham nazarda tutilgan. Kompaniya milliy mehnat qonunchiligiga rioya qilish, bolalar va majburiy mehnatdan foydalanishni taqiqlash, jinsiy tazyiq, ekspluatatsiya va zo‘ravonlikning barcha shakllarini taqiqlash, barcha xodimlarga jinsi, yoshi, etnik kelib chiqishi, diniy e‘tiqodi yoki boshqa xususiyatlaridan qat‘i nazar teng munosabatda bo‘lish, har qanday hodisalar haqida xabar berishning aniq tartiblari, maxfiylik va qasos choralaridan himoyani ta‘minlash hamda qoidabuzarliklar uchun intizomiy choralarni belgilovchi kadrlar siyosati va jinsiy kamsitishga qarshi siyosatni tegishli darajada amalga oshirayotganini namoyish etdi.

Kompaniyada jami 50 nafar xodim ishlaydi va ular mehnat muhofazasi hamda ijtimoiy mas‘uliyat masalalari bo‘yicha muntazam o‘qitiladi. Barcha yangi xodimlar majburiy texnika xavfsizligi instruktajidan, shuningdek shovqin va changdan himoyalani, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, favqulodda vaziyatlardagi harakatlar va uskunalardan xavfsiz foydalanish bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslaridan o‘tadi. Treninglar

biznes etikasi, fermerlar va mahalliy hokimiyat organlari bilan muloqot, tazyiqlarning oldini olish, shuningdek pudratchilar va yetkazib beruvchilar tomonidan xavfsizlik, sifat va barqarorlik standartlariga rioya qilish masalalarini ham qamrab oladi. Amaldagi loyiha doirasida yangi korxonada ishlab chiqarishdagi mehnat muhofazasi va xavfsizlik bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun maxsus o'quv hududi tashkil etiladi.

Kompaniyada gender asosidagi zo'rvonlik va tazyiqlarga oid taxmin qilingan holatlar bo'yicha shikoyatlarni tegishli va maxfiy tarzda ko'rib chiqishni ta'minlaydigan tizim joriy etilgan. Shikoyatlar bir nechta himoyalangan kanallar orqali, jumladan anonim takliflar qutisi va kadrlar bo'limi bilan bevosita aloqa orqali yuborilishi mumkin. Barcha holatlar qat'iy maxfiylik sharoitida ko'rib chiqiladi va tezkor tekshiriladi, ular bo'yicha qarorlar esa kompaniya siyosatiga muvofiq qabul qilinadi. Jarayon davomida ishtirok etuvchi barcha shaxslarning xavfsizligi va himoyasi ustuvor hisoblanadi.

Ishlab chiqarish maydonchasi bo'yicha ekologik yoki ijtimoiy cheklovlar aniqlanmagan. Kompaniya atmosfera chiqindilari, shovqin, suvdan foydalanish va oqova suvlar, shuningdek chiqindilarni boshqarish bo'yicha milliy qonunchilik va ruxsatnomalarda belgilangan ekologik me'yorlarga rioya qiladi. Muvofiqlik muntazam ravishda monitoring qilinadi hamda inspeksiyalar, laboratoriya sinovlari va tashqi SMETA auditlari bilan tasdiqlanadi. Ushbu tizim va milliy talablar hamda ilg'or xalqaro amaliyotga rioya qilish bo'yicha aniq majburiyatni hisobga olgan holda, Kompaniyadan qo'shimcha harakatlar talab etilmaydi. Kompaniya Bankning Ekologik va ijtimoiy talablariga rioya qilishi hamda YTTBga yillik ekologik va ijtimoiy hisobotlarni taqdim etishi shart.

Yashil baholashlar

Loyiha Parij kelishuvining iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashish maqsadlariga muvofiq deb topilgan. U umumiy qiymati 15 million yevro bo'lgan kichik bitimlar mezonlariga mos keladi hamda yuqori emissiyali yoki iqlim o'zgarishiga nisbatan zaif sektor sifatida tasniflanmagan "ulgurji savdo" sektorida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish issiqxonalarining nazorat qilinadigan sharoitlarida olib boriladi, bu esa ishlab chiqarish operatsiyalarining yuqori uglerod zaxirasiga ega yoki biologik xilma-xillik nuqtai nazaridan muhim hududlarga kengayishi xavfini minimallashtiradi.

Loyiha ikki asosiy tadbir orqali Yashil iqtisodiyotga o'tish (GET) doirasida iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha 100 foizlik komponentni ta'minlaydi: ishlab chiqarishni yuqori energiya samaradorligi standartlariga muvofiq modernizatsiya qilish hamda o'simlik oqsillari, xususan moshni joriy etish, shuningdek organik quritilgan o'rik va mayiz ishlab chiqarishga o'tishni qo'llab-quvvatlash.

Texnik hamkorlik va grantlarni moliyalashtirish

Loyiha tegishli huquqiy kompleks tekshiruv xarajatlarining bir qismini qoplash uchun Yaponiya–YTTB Hamkorlik jamg'armasi ko'magida amalga oshiriladi; ushbu xarajatlarning 25 foizigacha bo'lgan qismi mijoz hissasi hisobidan qoplanadi. Shuningdek, Loyiha keyingi kredit doirasida 100 ming yevrogacha (dastlabki 100 ming yevro grant bilan birga jami 200 ming yevro) aralash imtiyozli moliyalashtirish oladi. Ushbu moliyalashtirish Germaniya Federal atrof-muhit vazirligi (BMUV) tomonidan moliyalashtiriladigan YTTB Agrifood Nexus dasturi doirasida taqdim etiladi. Qarz oluvchi manfaatlar uchun uning moliyaviy hisobotlarini audit qilish va tekshirishga qaratilgan ikkita maslahat loyihasi amalga oshirilgan.

Kompaniya bilan aloqa uchun ma'lumotlar

Sardor Abbaskhanov

s.abaskhanov@gmail.com

+998 97 780 58 08

<https://www.globalex.uz/>

O'zbekiston, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 141/1

PSD so'nggi marta yangilangan sana

2026-yil 11-iyun

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havoladan](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#) dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi

PUBLIC

halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonim tarzda xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiq qilish bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi, ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; Bank tomonidan ishlab chiqilgan Ekologik va ijtimoiy siyosat talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli Axborotdan erkin foydalanish siyosati qoidalariga rioya qilinishini baholash; zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb-saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com elektron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.